



## XALQ DEPUTATLARI BUVAYDA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 23-oktabr

VI-74-85-11-154-K/24

Buvayda tumani

### **Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan foydalanish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrda qabul qilingan “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga (*Keyingi o‘rinlarda Qonun deb yuritiladi.*) muvofiq, Xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy budgetlarni boshqarishda erkinliklar berilib, soliqlar va yig‘imlar bo‘yicha stavkalarini belgilash, mahalliy budgeti xarajatlarini hududiy budget mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirildi.

Mazkur Qonunga hamda Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘laridan foydalanish bo‘yicha Xalq deputatlari Buvayda tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

**1.** O‘zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 119-126-moddasiga hamda “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-sonli Qonuniga muvofiq Buvayda tumani Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i A.Ergashevning 2024-yil III chorak mahalliy budgeti ijrosi to‘g‘risidagi hisoboti qabul qilinsin. Mazkur hisobotdan kelib chiqib, Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘lari **900.3 million so‘m** miqdorida shundan 2024-yil III chorak Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘laridan **103.1 million so‘m** shakllanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larini birinchi navbatda Hukumat qarori va bayonlarida ko‘zda tutilgan tadbirlarni moliyalashtirishga, muhim Davlat dasturlari ijrosini ta’minlashga, aholini turmush farovonligini oshirishga hamda

favqulodda vaziyatlarda va kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar ijrosini ta’minlashga yo‘naltirish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullansin.

3. Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘lari belgilangan maqsadlar uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin. Bunda,

- fuqarolar ishtirokining tuman budgetlari qo‘srimcha manbalarining kamida 30 foizidan kam bo‘limgan miqdorda ya’ni **239.0 million so‘m** “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman Hokimligi, Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengash kotibiyati, tuman hokimligi huzuridagi Ko‘nikma markazi va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limining xodimlarini moddiy va ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, turmush sharoitlarini yanada yaxshilash, ularda ishga bo‘lgan mas’uliyat va munosabatlarini oshirish hamda ular o‘rtasida korrupsiyaviy muhitning shakllanishini oldini olish maqsadida ustama to‘lovi belgilangansin hamda belgilangan ustamani to‘lash bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman hokimligiga **178.9 million so‘m**, Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengash kotibiyatiga **27.4 million so‘m**, tuman hokimligi huzuridagi Ko‘nikma markaziga **7.3 million so‘m** va tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limiga **122.3 million so‘m** jami **335.9 million so‘m** mablag‘ ajratilsin;

- tuman hokimligi balansidagi xizmat avtomashinalariga suyultirilgan gaz va benzin yoqilg‘isi sotib olish xarajatlariga **12.0 million so‘m** mablag‘ yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman hokimligi va Buvayda tuman Qo‘riqlash bo‘limi o‘rtasida tuzilgan shartnama bo‘yicha yuzaga kelgan qarzdorlikni bartaraf etish hamda 2024-yil 4-choragi to‘lovleri uchun **50.0 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- tuman hokimligi moddiy texnika bazasini yaxshilash maqsadida 2 dona monoblok kompyuter jamlanmasi sotib olish xarajatlariga **30.7 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- Buvayda tumanida faoliyat olib borayotgan korxona, tashkilot va muassasalar hamda tuman hokimligining o‘rnak ko‘rsatib, o‘z vazifasini sidqidildan bajargan hamda yuqori natijalarga erishgan rahbarlari va xodimlarini mehnatini munosib rag‘batlantirish uchun esdalik sovg‘alari sotib olish xarajatlariga **30.0 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- tuman Soliq inspeksiysi moddiy texnika bazasini yaxshilash maqsadida 1 dona monoblok kompyuter jamlanmasi sotib olish xarajatlariga **10.0 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- tuman hokimligi nomidan sudga da’vo arizasi kiritish va pochta xajatlari uchun **3.8 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 6-avgustdagи 266-11-0/24-XDFU-sonli farmoyishiga asosan tuman hokimligining rasmiy veb-saytini amaldagi normativ hujjatlarda qo‘yilgan talablarga moslash, axborot xavfsizligini to‘liq ta’minlagan holda saytni yangitdan yaratish bilan bog‘liq xarajatlar uchun **23.7 million so‘m** yo‘naltirilsin;

- Buvayda tuman hududidagi tuproqli ichki yo‘llarga hashar yo‘li bilan mayda tosh yotqizish ishlarini amalga oshirilishi uchun talab etiladigan yoqilg‘i-moylash mahsulotlarini sotib olish bilan bog‘liq xarajatlar uchun tuman Obodonlashtirish boshqarmasiga **12,1 mln.so‘m** yo‘naltirilsin;

- 2024-yil III-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobida qolgan **53.0 million so‘m** mablag‘ hamda 2024-yil III-chorak Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan pul mablag‘lari hisobida qolgan **18.9 million so‘m** pul mablag‘lari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti hamda hukumati qaror va farmonlarida belgilangan tadbirlar hamda qonunda taqiqlanmagan boshqa maqsadlar uchun yo‘naltirilsin.

4. Buvayda tuman mahalliy budgetining 2024-yil III-choragida Yer uchastkalariga bo‘lgan huquqlarni sotishdan tushgan **84 million 156.3 ming so‘m** pul mablag‘lari Farg‘ona viloyati hokimining 2024-yil 10-sentyabrdagi 01-43/1968-sonli topshirig‘iga asosan “Jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan mulkiy zararlarni kompensatsiya qilish bo‘yicha hududiy maqsadli jamg‘arma”ga yo‘naltirilganligi ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

5.Tuman hokimligi bosh hisobchisi, Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashi kotibiyati (B.Mamadaliev) , tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev), tuman Soliq inspeksiyasi (M.Roziqov) va tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (N.Ibrohimov)larga ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda o‘z vaqtida tegishli jamg‘armalarga o‘tkazish, uning maqsadli yo‘naltirilishini ta’minlash, hamda moliyalashtirish manbasini ochish uchun belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi va G“aznachilik xizmati bo‘linmalariga taqdim etilishini nazoratga olish vazifasi yuklansin.

6. Tuman hokimining birinchi o‘rnbosari (D.Maxsitaliev), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Ergashev)lar tegishli ravishda budget mablag‘lari taqsimlovchilarining budget mablag‘laridan samarali foydalanilishi ustidan qat’iy nazoratni o‘rnatish hamda erishilgan natijalar bo‘yicha hisobotlarini Xalq deputatlari Buvayda tumani Kengashiga kiritib borilishini ta’minlasin.

7. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining «Mahalliy budget, iqtisodiy isloxoatlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha» doimiy komissiyasi raisi X.Akbarov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



IBRAGIMOV BEXZOD  
ODILJONOVICH